

ABDULLA QAHHORNING “ÓG’RI” HIKOYASIDAGI MAQOL VA FRAZEOLOGIZMLARNING TARIFI

Eshquvvatova Laylo Jórabek qizi

TerDU Pedagogika instituti Tillar fakulteti ózbek tili va adabiyoti yónalishi 2-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7301160>

Annotatsiya. Maqolada Abdulla Qahhorning “Óg’ri” hikoyasidagi maqol va frazeologizmlarning ma’nosi ochib beriladi. Bundan tashqari maqol va frazeologizmlarga tariflar beriladi.

Kalit sózlar: Abdulla Qahhor, “Óg’ri” hikoyasi, maqol, frazeologizmlar, Ozod Sharafiddinov, “Abdulla Qahhor” kitobi, “Osmon uzoq-yer qattiq”, “Mushuk tekinga oftobga chiqmaydi”, “Quruq qoshiq og’iz yirtadi”, “Óynashmagil arbob bilan -seni urar har bob bilan” va boshqa sózlar.

ТАРИФ ПОСЛОВИЦ И ФРАЗЕОЛОГОВ В ПОВЕСТЕ "ОГРИ" АБДУЛЛА КАХОРА

Аннотация. В статье раскрывается значение пословиц и фразеологизмов в рассказе «Вор» Абдуллы Каххора. Кроме того, даются ставки на пословицы и фразеологизмы.

Ключевые слова: Абдулла Каххор, повесть «Огири», пословица, фразеология, Azod Sharafiddinov, книга «Абдулла Каххор», «Небо далеко, земля тяжела», «Кот на солнце даром не ходит», «Сухая ложка рвет рот», «С очаровательным характером - каждой главой будешь поражаться» и другими словами.

TARIFF OF PROVERBS AND PHRASEOLOGISTS IN THE STORY "ÓGRI" BY ABDULLAH QAHHOR

Abstract. The article reveals the meaning of proverbs and phraseology in the story "Thief" by Abdulla Qahhor. In addition, rates are given for proverbs and phraseology.

Key words: Abdulla Kahhor, "Og'ri" story, proverb, phraseology, Azod Sharafiddinov, "Abdulla Kahhor" book, "The sky is far, the earth is hard", "The cat does not go to the sun for nothing", "A dry spoon tears the mouth", "With a charming character - you will be hit with every chapter" and other words.

KIRISH

Adabiyotimizning zabardast yozuvchilaridan biri Abdulla Qahhor 1907-yilda 17-sentabrda azim shaharlarimizdan biri Qóqonda tavallud topgan. Uning otasi temirchi bólgan. Mana shu kasbi tufayli zamon og’irligidan adibizning oilasi Qóqonning kóplab qishloqlari bóylab kóchib yurishga manjbur bólishgan. U órta malumotni Qóqonda olgan. Abdulla Qahhor 1927-yilda Toshkentga kelib “Qizil Ózbekiston” gazetasida ishlaydi. U Órta Osiyo Davlat universitetining Pedagogika fakultetida tahsil oladi. Yozuvchimizning ijodi 1924-yildan boshlagan. Dastlab “Mushtum” jurnalida, “Yangi Farg’ona” gazetasida Uning hikoya, felyeton va xabarlarini bosilgan. Adibimizning “Asror bobo”, “Xotinlar”, “Oltin yulduz”, “Kampirlar sim qoqdi”, “Jonifig’on”, “Óg’ri” va boshqa kóplab hikoya va asarlari mavjud. Abdulla Qahhor hikoyalarida hayotdagi va inson tabiatidagi turli-tuman nuqsonlarni tanqid etgan. Odamjot mavjud ekan baxillik, johillik, ochkózlik, maqtonchoqlik va boshqa nuqsonlar albatta yashaydi. Bu qusurlar ya’ni illatlar inson qadr-qimmatini pasta uradi, barkamol inson bólishga halaqit

beradi. Abdulla Qahhorning hikoyalarida faqat salbiy nuqsonlar haqida sóz boradi deb xato óyلامasligimiz kerak. Chunki adibimiz hikoyalarida yaxshilik, oliyanoblik, sodiqlik, sadoqat sifatleri ham ulug'lanadi. Hozir maqolada "Óg'ri" hikoyasidagi maqol va frazeologizmlarning ma'nolarini kórib chiqiladi.

TADQIQOT METODI VA NATIJASI

Ózi maqol va frazeologizmlar nima?

Maqol-xalq og'ziki ijodi janri; qisqa va lónda, obrasiz, grammatik va mantiqiy jihatdan tugallangan ma'noli birikmadir. Maqollarda avlod-ajdodlarimizning hayotiy tajribalari tarixi, ruhiy holati etik va estetik tuyg'ulari, ijobiy fazilatleri mujassamlashgan.

Frazeologizm (gr.phrasis-"ifoda", logos- ta'limot") ma'nosini aglatadi. Frazeologizm ibora deb ham yuritiladi. Birdan ortiq mustaqil leksema kórinishining birikuvidan tashkil topib, obrazli ma'niviy tabiatga ega bólgan lisoniy birlik frazeologizm deyiladi. Iboralar gap tarkibida yaxlit holda bitta gap bólagi vazifasizda keladi. Iboralar nutqni ta'sirchan, jozibali qiladi. Abdulla Qahhorning "Óg'ri" hikoyasida "osmon uzoq- yer qattiq", "Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi", "Begim deguncha beling sinadi", "Berganga bitta ham kóp, olganga ónta ham óz", "Quruq qoshiq og'iz yirtadi", "Chashna olib kelmoq" kabi ibora va maqollar qóllanadi. Bu birliklarning hikoyada qóllanishi: Ellikboshi hókizni juda naqd qilib qóydi.- Góyo u kóchaga chiqsa bas- hókiz yopiladi. Bu "xudo yallaqagur" shunchalik qilgandan keyin bir nima berish lozim-da. Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi... Kechqurun Qobil bobo aminning oldiga boradigan bóldi. Quruq qoshiq og'iz yirtadi, aminga nima olib borsa bóladu? Berganga bitta ham kóp olganga ónta ham oz... Qidirtirsak mikan-a?- dedi amin chinchalog'ini etigining ostiga artib, -suyunchisi nima bóladu, suyunchidan chashna olib kelinmadimi?... Qobil bobo yor-dóstleri bilan kengashdi- pristafga puldan boshqa nima olib borsa bóladu? Ma'lum bóldiki uni begim deguncha kishining beli sinar ekan... Cholning butun bóg'inlari bóshashib ketdi, keyin tutoqishdi, ammo górdada bir nima deyoladimi "óynashmagil arbob bilan-seni urar har bob bilan" kabi maqol va iboralar ishlatilgan.

XULOSA

"Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi" maqolining ma'nosi biron bir ish qilgan kishini rozi qilish, ósha inson ham qilgan ishidan manfaat kutishini bildiradi. Bu maqolani Abdulla Qodiriy ham "Mehrobdan chayon" asarida qóllaydi. Unda shevadagi varianti ishlatiladi. Hikoyadagi "Quruq qoshiq og'iz yirtadi" maqolining ma'nosi tepadagi maqolimizning ma'nosiga yaqin. "Begim deguncha kishining beli sinadi" maqoli yuqor mansabdagi insoni rozi qilish uchun ancha narsalar qilish kerakligini aglatadi.

REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 3 декабрдаги "Иқтидорли ёшларни саралаб олиш тизими ва академик лицейлар фаолиятини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида" ПҚ-4910-сон Қарори.
2. Ниёзов Қ.А. Компетенциявий ёндашувга асосланган таълим жараёнида генетикадан масала ва машқларни ўзига хос усуллар ёрдамида ечиш методикаси. *Замонавий таълим*, 2017 й, 12-сон. 71-77-б.
3. Вахобов М.М. Компетенциявий ёндашувга асосланган давлат таълим стандартларини жорий этиш – замонавий таълим парадигмаси сифатида. *Замонавий таълим*, 2016 й, 10-сон. 3-10-б.